

**KAFOLAT SHARTNOMASI**

Toshkent shahar

Kafolat shartnomasining raqami	_____
Kafolat shartnomasi tuzilgan sana	_____
Kafil	F.I.SH
Qarz beruvchi	“MIKROMOLIYA TASHKILOTI OASISCREDIT” mikromoliya tashkiloti mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi nomidan ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor Guseynov Mahmudali
Qarz oluvchi	_____
<i>Qarz beruvchi va Qarz oluvchi keyingi o'rinlarda – “Tomonlar”</i>	
Kredit shartnomasi	№ _____ - _____ dan
Kredit miqdori	_____ so'm
Kredit muddati	__ oy
Shartnoma mavzusi	Kafil, ushbu Shartnomaga muvofiq, Kredit shartnomasi, shuningdek unga kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha Qarz oluvchining barcha majburiyatlari (keyingi o'rinlarda – “Asosiy majburiyat” deb yuritiladi), bo'yicha Qarz beruvchi oldida javob berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

**1. TOMONLARNING KAFOLATLARI, HUQUQLARI VA MAJBURIATLARI**

- 1.1 Kafil yuqoridagi Kredit shartnomasining barcha shartlari bilan tanishgan va Qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishi uchun to'liq javobgar bo'lishga rozi.
- 1.2 Kafil, Ushbu Kafolat shartnomasini tuzish orqali, kelajakda Kredit shartnomasiga kiritilishi mumkin bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar va/yoki unga qo'shimcha bitimlar, shu jumladan: kreditni qaytarish bo'yicha to'lovlar tarkibini o'zgarishi; foiz stavkasining o'zgarishi; Tomonlarning javobgarligi, huquq va majburiyatlari va boshqalar; Kafil bilan kelishilgan deb hisoblanishga va Kafil uchun javobgarlikning oshishiga yoki boshqa noxush oqibatlarga olib keladigan majburiyatning o'zgarishi sababli kafolatning bekor qilinishiga olib kelmasligiga rozi.
- 1.3 Qarz oluvchi tomonidan Asosiy majburiyat buzilgan taqdirda, ushbu Qarz oluvchi va Kafil Qarz beruvchi oldida birgalikda javobgar bo'ladilar.
- 1.4 Kafil Qarz oluvchining o'rniga (to'liq yoki qisman) Kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va hollarda majburiyatni muddatidan oldin bajarishga haqli.
- 1.5 Kafil Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, shuningdek, o'z majburiyatlarini bajara olishi imkonsizligi sababli (o'lim, uzoq muddat yo'qligi, kasallik, tugatish, bankrotlik, va boshqa), quyidagi to'lovlarni to'liq to'lash majburiyatini oladi:
  - Kredit shartnomasi bo'yicha qarzni;
  - Kredit shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan hisoblangan foizlarni, neustoykalarini (jarimalarni), shuningdek kreditorning Kredit shartnomasi bo'yicha qarzlarni undirish bo'yicha xarajatlarini, shu jumladan Qarz beruvchining qarzni undirish to'g'risidagi arizasini sud tomonidan ko'rib chiqish

Kafil \_\_\_\_\_

Qarz beruvchi \_\_\_\_\_

bilan bog'liq davlat bojini, Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli Qarz beruvchiga yetkazilgan zararni qoplashni, shuningdek Qarz beruvchng qarzni undirish bo'yicha boshqa xarajatlarini qoplashni.

- 1.6 Qarz oluvchining qarzi borligini tasdiqlovchi yetarli hujjat Qarz beruvchidan Kafilning iltimosiga binoan unga beriladigan ma'lumotnomadir.
- 1.7 Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq yoki biron bir qismini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Qarz beruvchi Kafilga bunday qarzni to'lash to'g'risida yozma talab qo'yishga haqli.  
Kafil ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni tegishli talab olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay bajarishi shart.
- 1.8 Talabda quyidagilar: Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq to'lov kuniga qadar hisoblangan foizlar va penyalari ko'rsatilgan holda Qarz oluvchi tomonidan to'lanmagan majburiyat summasi, shu bilan birga, Kafil qarzni to'lash kunidagi Qarz oluvchining qarz miqdori foizlar va penyalarni hisoblanganligi munosabati bilan talabda ko'rsatilgan miqdordan farq qilishi mumkinligini tushunadi va rozi bo'ladi.
- 1.9 Kafil 3 (uch) kun ichida pasport ma'lumotlari va ro'yxatdan o'tish manzili o'zgarganligi to'g'risida Qarz beruvchini xabardor qilishi shart. Kafil ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzili o'zgarganligi to'g'risida Qarz beruvchini xabardor qilmagan taqdirda, Qarz beruvchiing ma'lum manzilga yuborilgan talablari tegishli deb hisoblanadi.
- 1.10 Qarz oluvchining majburiyatlarini to'liq bajargan Kafilga ushbu majburiyat bo'yicha Qarz beruvchini ing barcha huquqlari, shu jumladan uning bajarilishini ta'minlagan huquqlari o'tadi.

## **2. BOSHQA SHART VA SHARTLAR**

- 2.1. Kafillik shartnomasi ikkala Tomon imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi, shu jumladan Qarz beruvchining bosilgan muhri, va Qarz oluvchi va/yoki Kafil kredit shartnomasi bo'yicha Qarz beruvchi oldidagi majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 2.2. Ushbu shartnoma bo'yicha Kafolat asosiy majburiyat to'liq bajarilgan taqdirda tugatiladi.
- 2.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan yozma ravishda amalga oshiriladi.
- 2.4. Kafil ushbu shartnomani imzolash orqali shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash, saqlash, foydalanish, almashish va o'tkazish uchun ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek, shartnoma tugatilgandan kundan boshlab 3 (uch) yil ichida yozma roziligini berganligini tasdiqlaydi.
- 2.5. Kafil ushbu shartnomani imzolash orqali O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, hajmda va tartibda o'zi haqidagi ma'lumotlarni (shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni) kredit reestri va kredit tarixi byurolariga, boshqa reestrlarga, shuningdek Qarz beruvchining huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish uchun uchinchi shaxslarga, Qarz beruvchining huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq shartsiz rozilikni beradi.
- 2.6. Kafil, Qarz oluvchi Asosiy majburiyat bo'yicha almashtirilgan taqdirda, Shartnoma bo'yicha kafolat, bunday almashtirish uchun asoslardan qat'i nazar, to'liq hajmda saqlanib qolishiga qat'iy rozi bo'ladi.
- 2.7. Shartnoma Kafil tomonidan aldanish, bosim yoki qiyin vaziyatlar ta'siri ostida emas, balki ixtiyoriy ravishda imzolangan. Shartnoma uning o'z irodasiga va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni so'zsiz va real bajarish niyatlariga mos keladi.
- 2.8. Ushbu shartnomani imzolash orqali Kafil kredit shartnomasining barcha shartlari bilan (Asosiy majburiyatlar), o' rasmiy sahifasida e'lon qilingan <https://oasis.uz/ru/>, Qarz beruvchi qoidalari

(<https://oasis.uz/ru/pravila/> ) bilan tanishish faktini tasdiqlaydi, ularni to'liq tushunadi, adolatli deb hisoblaydi, oqibatlarini, mas'uliyat doirasini biladi va hech qanday e'tirozi yo'q.

- 2.9. Ushbu Shartnomada aks ettirilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 2.10. Tomonlar o'rtasida tuzilgan amaldagi shartnoma yuzasidan paydo bo'ladigan yoki u bilan bog'liq hamma nizolarni Tomonlar o'zaro kelishib hal qilishga harakat qilishadi. Tomonlar kelishib hal qilolmagan nizo O'zR amal qiladigan qonuniga muvofiq hal qilish uchun Qarz beruvchi ro'yxatga olingan joydagi sudga topshiriladi.
- 2.11. Ushbu Kafolat shartnomasidan kelib chiqadigan barcha da'volar 3 yillik da'vo muddati bilan belgilanadi.
- 2.12. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada, har bir Tomon uchun bittadan tuzilgan. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Kafil uning nusxasini olganligini tasdiqlaydi.

### **KAFIL**

### **QARZ BERUVCHI**

#### **“MIKROMOLIYA TASHKILOTI OASISCREDIT” MCHJ XK MMT**

**Yashash joyi:**

**Pasport:**

**PINFL:**

**Telefon:**

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Oloy bozori  
boshi berk ko'cha, 63-uy  
STIR: 308 931 085

R/S: 2021 6000 2054 4570 0001

Bankning MFO: 00974

“KAPITALBANK” ATB OPERATORI

R/S: 2021 6000 8054 4570 0002

Bankning MFO: 00444

"IPAK YO'LI" AIKB BO

**F.I.SH**

Guseynov Mahmudali

Imzo,  
muhur